

Xitoy madaniyatidagi milliy bayramlarning lingvomadaniy tahlili

Nurniyozova Aziza¹

Anontatsiya: Barchamizga ma'lumki, milliy bayramlar – bu xalqning asrlar davomida shakllangan an'anaviy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va e'tiborga molik voqealarini yod etish uchun nishonlanadigan muhim sanalardir. Har bir bayram o'zida millatning orzu-intilishlari, qadr-qimmatini, ma'naviyati va yorqin kayfiyatini mujassam etadi. Ana shu ulug' kunlar orqali biz ajdodlarimiz bosib o'tgan sharaflari yo'lni eslaymiz, ularning Vatan ravnaqi yo'lida qo'shgan hissalarini chuqur his qilamiz hamda jamiyat hayotida yuz bergan muhim o'zgarishlarni anglaymiz. Shuningdek, bayramlar kelgusi avlod qalbiga yurtga sadoqat, hurmat, ezgulik va milliy g'urur kabi fazilatlarini singdirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Xitoyning ming yillik tarixga ega bo'lgan, rang-baranglik va chuqur ramziy ma'nolarni o'zida aks ettirgan milliy bayram va an'analari alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu bayramlar xalqning qadimiy e'tiqodlari, falsafiy qarashlari va turmush tarzini o'zida mujassam etib, nafaqat Osiyo mintaqasida, balki jahon miqyosida, jumladan, Yevropa davlatlarida ham katta qiziqish va hayrat uyg'otib kelmoqda. Mazkur maqolada Xitoyning o'ziga xos milliy bayramlari, ularning kelib chiqish tarixi, urf-odatlarini hamda o'tmish va zamonaviy davr o'rtasidagi o'zgarishlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit sozlar: Milliy Bayramlar, An'anaviy Qadriyatlar, Tarixiy Xotira, Madaniy Meros, Xitoy, Urf-Odatlar, Ming Yillik Tarix, Madaniy Rang-Baranglik, Avlodlar Davomiyligi, Zamonaviy O'zgarishlar

Xitoy dunyoning eng qadimiy madaniy taraqqiyot markazlaridan biri bo'lib kelgan, va uning madaniy qadriyatlari ming yillar davomida shakllanib, o'zida rang-barang urf-odatlar va qadriyatlarni mujassam etmoqda. Xitoy madaniyati „Konfutsiychilik“ tamoyiliga asoslangan holda, oilaga hurmat, yoshi ulug' insonlarni qadrlash, jamoaviylik va mehnatsevarlik muhim o'rin tutadi. Bayram-har bir jamiyat an'analari, tarixini va ijtimoiy hayotini o'zida aks ettiruvchi keng tushincha hisoblanadi. Xitoyda milliy bayramlar millatning tarixiy xotirasi va diniy qarashlari bilan o'zaro bog'liq. Xitoy madaniyatidagi bayramlar asosan oy kalendari bo'yicha hisoblanadi. Xitoy lingvomadaniyati- bu insoniyat rivojlanishining eng murakkab va qadimgi yo'nalishlardan biri bo'lib, u bir necha ming yillar davomida sayqallangan falsafiy tushinchalar, ijtimoiy bosqich va iyerogliflar bilan uzviy bog'liq. Xitoy tilini tushinish uchun faqat grammatikani o'rganish emas, balki „Osmon osti o'lkasi“ning o'ziga xos falsafiy qarashini ham bilish darkor. Xulosa qilib aytganda, Xitoy lingvomadaniyati – til va tafakkur uyg'unligi, iyerogliflar, muloqot odobi, fonetik ramzlar va raqamlar mantiqi, ranglar timsoli va g'amxo'rlik kabi tushinchalarni o'z ichiga oladi.

Xitoy milliy bayramlari shunchaki dam olish fursati bo'lib qolmaygina, uzoq ming yillik dehqonchilik qadriyatlari, astronomik izlanishlar va qadimgi dunyoqarashlarni o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-madaniy tizimdir. Ularning aksariyati Nónglì (农历 / 農曆

¹ Nurniyozova Aziza¹ Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti talabasi

1912-yilda Xitoyda rasmiy ravishda Grigorian (quyosh) taqvimi qabul qilingandan so'ng, an'anaviy taqvimni farqlash uchun ishlatila boshlangan) taqvim asosida nishonlanadi.

Chunjie(春节 Bahor bayrami yoki Xitoy yangi yili).

Bu Xitoyda eng muhim bayramlardan biri hisoblanib, bir-birini tabriklagan holda “新年快乐” (Xin Nian Kuai Le – Yangi yil bilan muborak!) va “恭喜发财” (Gong Xi Fa Cai – Boylik va omad tilayman) deb tilak bildiradi. Uning kelib chiqishi esa, 年(Nian -Yil) nomli maxluq haqidagi afsonaga borib taqaladi. Afsonada aytilishicha, qadimda „ Nian” laqabli maxluq yangi yil kunlari qishloqlarga hujum qilib, insonlar va chorva mollarini yer edi. Shunda odamlar uning olovdan, qizil rangdan va shovqindan qo'rqishini bilib qolishadi. Shu sababli, insonlar bayramda qizil rang tusidagi kiyim kiyish, kirish qismiga qizil rangdagi karton qog'ozlar yopishtirish va mushakbozlik uyishtirish odat tusiga aylantirishgan, va bu ular uchun „ yovuzlikni haydash” va yangilanish ramzi hisoblanadi. Qizil rang omad va baxt ramzi hisoblangani sababli, ayollar va erkaklar qizil rangdagi kiyimlarni kiyadi. Ayollar bezakli, uzun kurtkalar yoki changshan kiyadi, erkaklar esa Tang yoki changshan kostyumlarini kiyadi. Bayram uchun yangi kiyim sotib olish yangilanish belgisi hisoblanadi. Yangi yil kuni barcha oila a'zolari uyga yig'iladi va yangi yil bayramining milliy taomi hisoblangan Jiao zi (饺子 chuchvara) tayyorlanadi. Xitoyda yangi yil arafasida turli xil ko'nilochar shoular va zavqli o'yinlar uyushtiriladi. Bunga misol tariqasida, ko'plab insonlar uzun ajdarho shaklidagi libosni kiyib, ohang uslubdagi raqsga tushadi va kichik sport musobaqalari o'tkaziladi. Ishlatilgan pirotexnika bayramga yanada zavq va shukuh bag'ishlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari bu bayram 2009 yilda YUNESKOning Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Yuanxiaojie (元宵节 Fonuslar bayrami).

Bu bayram yangi yilning 15-kuni, ya'ni ilk to'lin oy chiqqan tunda nishonlanadi. U asosan oilaviy birlashish, yorqinlik va baxtni ifodalaydi. Bayramda insonlar bir-biriga baxt va sog'liq tilagan holda, “元宵节快乐” (Yuanxiao Jie Kuai Le) tabriklashadi. Bu bayram miloddan avvalgi II asrda, Xan sulolasi davrida buddizmni ulug'lash maqsadida paydo bo'lgan. Imperator farmoniga binoan, barcha saroy va ibodatxonalarda Budda sharafiga chiroqlar yoqilgan. Rang-barang fonuslar esa, umid va yorug'lik belgisidir. Shu kunda oilaviy bir dasturxon atrofiga to'planib, yumaloq shakldagi "yuanxiao"元宵 (guruchli shirinlik) yeyiladi, bu esa "oila butunligi"ifodasini anglatadi.

Duanwujie (端午节 Ajdaho qayiqalar bayrami)

Yozning ilk kunlarida nishonlanadigan ushbu bayram vatanparvar shoir Syu Yuan xotirasiga o'tkaziladi va haqdagi rivoyatni eslashadi. Rivoyatga ko'ra; Chu davlatining quroli shoirning maslahatlari bilan davlat ishlarini yuritgan va shoirning maslahatlari mamlakat rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Shoir vatanini sevgan, ammo qurol o'limidan keyin uning o'g'li hokimiyat tepasiga keladi va mamlakatning inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi. Shoir o'z vatanining vayron bo'lishiga chiday olmay, o'zini daryoga tashlaydi. Uni qutqarmoqchi bo'lgan xalq qayiqalarda daryo bo'ylab izlashadi va baliqlar shoirning jasadiga tegmasligi uchun daryoga guruchli yeguliklar tashlashadi, ammo ular shoirni topa olishmagan va shundan keyin zong zi

(粽子 bargga o'ralgan guruch) milliy taomi hisoblanadi. Hozirgi kunga qadar, ajdaho shaklidagi qayiqlarda musobaqa o'tkazish va guruchli shirinliklar iste'mol qilish xalq orasida saqlanib qolgan.

Zhongqiujie (中秋节 Kuz o'rtasi bayrami)

Oy kalendari bo'yicha sakkizinchi oyning o'n beshinchi sanasida hosil yig'ib olingandan keyin nishonlaniladi. Bu bayram oy to'lin bo'lgan kunga to'g'ri kelib, xitoyliklar shu kuni oyga mahliyo bo'lib, tikilgan holda uzoqda bo'lgan yaqinlarini eslashadi. Shuning bu bayram Oy ma'budasi Chang'e (嫦娥) haqidagi afsona bilan bog'liq. Uzoq yillar oldin yer yuzida o'nta quyosh bo'lgan va yerdagi odamlarni o'z issiqligi bilan qiynar edi. Shu paytda jasur o'qchi Hou Yi paydo bo'lib, to'qqistasini urib tushirgan. Shundan keyin, xalq faravonlikka yuz tutdi va butun xalq tomonidan u xurmat qilina boshlandi. Bir kuni Chang'e osmonga chiqqan mo'jizaviy abadiy umr beruvchi obhayotni qo'lga kiritdi. Agar kimdir bu obhayotni ichsa, u butun umr yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Lekin Chang'e bu obhayotni ichishga majbur bo'ladi, chunki bir yomon shaxs uni o'g'irlab ketmoqchi bo'ladi. Chang'e obhayotni ichib, darhol Oyga ko'tariladi, shunda u abadiy hayotga ega bo'ladi va Oyda yashaydi. Yumaloqlik" Xitoy madaniyatida to'kislik va birlikni anglatadi. Bu bayramning milliy taomi Yue bing (月饼 Oy shaklidagi pishiriq) hisoblanadi. Shu sababli, oila a'zolari uzoqdan bo'lsa ham kelib, birgalikda ularni tayyorlab tanovul qilishadi.

Er-tong (儿童节 -Jie Xitoyda bolalar bayrami)

Bolalar – har bir jamiyatning kelajagi, millatning davomchisi va oilaning eng bebaho ne'matidir. Shu sababli dunyoning ko'plab mamlakatlarida 1-iyun — Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni sifatida keng nishonlanadi. Xususan, Xitoyda ham bu sana alohida ahamiyatga ega bo'lib, u xitoy tilida “Értóng Jié” (儿童节) deb ataladi. Bu bayram Xitoy lingvomadaniyatida bolalarga bo'lgan e'tibor va mehrning yorqin ifodasidir. O'zbekiston bilan qiyoslaganda ham, ushbu sana ikki mamlakatda o'xshash ruhda, ammo ayrim o'ziga xos jihatlar bilan nishonlanadi. Avvalo, Xitoyda 1-iyun rasmiy bayram maqomiga ega. 14 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun bu kun odatda dam olish kuni deb e'lon qilinadi. Maktablar va bog'chalarda odatiy darslar o'rniga turli madaniy va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etiladi. O'quvchilar konsertlar, raqs chiqishlari va sport musobaqalarida faol qatnashadilar. Ba'zi maktablarda bolalar qizil bo'yinbog' taqib, tantanali yig'ilishlarda ishtirok etadilar. Bu an'ana tarixiy jihatdan pionerlik harakati bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda ham ramziy ma'noda saqlanib qolgan. Xitoyda ushbu bayram nafaqat maktablarda, balki oila davrasida ham keng nishonlanadi. Ota-onalar farzandlariga alohida vaqt ajratib, ularni bog'lar, hayvonot bog'lari va attraksionlarga olib boradilar. Ko'plab ko'ngilochar maskanlar bolalar uchun bepul kirish yoki chegirmalar taqdim etadi. Bolalarga yangi kiyimlar, o'yinchoqlar va kitoblar sovg'a qilinadi. Oilaviy dasturxonda esa bolaning sevimli taomlari tayyorlanadi. Xitoy jamiyatining o'ziga xos jihati shundaki, uzoq yillar davom etgan “bir oilaga — bir farzand” siyosati tufayli bola oilaning markaziga aylangan. Shu bois bolalarni ba'zan “kichik imperatorlar” deb ham atashadi. Bu holat 1-iyun bayramining yanada tantanali va keng miqyosda o'tishiga sabab bo'lgan. Qiziqarli tomoni shundaki, bu kunda ayrim kattalar ham bolalikni eslab, bir-birlariga kichik sovg'alar berishadi yoki yoshlikdagi suratlarini ijtimoiy tarmoqlarda ulashishadi.

Fonuslar bayrami (xitoycha: 元宵节 — Yuánxiāojié)

Sharq taqvimiga ko'ra yangi yilning (Bahor bayramining) 15-kuni nishonlanadigan an'anaviy tantanadir. Bu bayram yorug'lik, oilaviy birlik va bahorning rasman kelishini anglatadi. Fonuslar bayrami Xitoy oy taqvimiga ko'ra yilning birinchi to'lin oyi chiqqan kechasida nishonlanadi. Ushbu bayram qadimiy an'analarga boy bo'lib, u oila birligi, yorug'lik va umid ramzi hisoblanadi. Bayram kuni ko'chalar, bog'lar va uylar turli shakl va rangdagi, ayniqsa qizil fonuslar bilan bezatiladi. Odamlar kechqurun ko'chalarga chiqib, nafis va badiiy ishlangan fonuslarni tomosha qiladilar. Fonuslar ustiga topishmoqlar yozilgan qog'ozlar yopishtiriladi va ularni to'g'ri topgan kishilarga kichik sovg'alar beriladi. Shuningdek, bu kunda "tanyuan" deb ataladigan shirin guruch koptokchalari iste'mol qilinadi. Ularning dumaloq shakli oilaviy birlik va baxtni anglatadi. Bayramning kelib chiqishi haqida turli rivoyatlar mavjud. Ulardan birida samoviy oqqushning o'ldirilishi sababli imperator yer yuzini yoqib yubormoqchi bo'lgani, ammo odamlar uylariga qizil fonuslar osib, olov yoqib, osmondan qaraganda yer yonayotgandek ko'rsatgani hikoya qilinadi. Yana bir afsonada esa Xan sulolasi davrida Yuan Syao ismli qiz fonuslar bahonasida oilasi bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgani aytiladi. Shu tariqa bayram xalq orasida keng tarqalgan

Xulosa qilib aytganda, Xitoy bayramlari xalqning boy tarixi, qadriyatlari va dunyoqarashini yaqqol aks ettiradi. Har bir bayram — xoh Xitoy Yangi yili, xoh Fonuslar bayrami yoki boshqa an'anaviy tantanalar bo'lsin — oila birligi, tinchlik, farovonlik va kelajakka umid g'oyalarini mujassam etadi. Bu bayramlarda qadimiy urf-odatlar zamonaviy hayot bilan uyg'unlashib, avlodan-avlodga o'tib kelmoqda. Shuningdek, Xitoy bayramlari jamiyatni birlashtirish, milliy o'zlikni mustahkamlash va yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Demak, Xitoy an'anaviy bayramlari nafaqat dam olish va quvonch kunlari, balki chuqur ma'naviy mazmunga ega madaniy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Fei Xiaotong. From the Soil: The Foundations of Chinese Society. 1947.
2. Lin Yutang. My Country and My People. 1935.
3. Patricia Buckley Ebrey. The Cambridge Illustrated History of China. 1996.
4. Derk Bodde. Festivals in Classical China: New Year and Other Annual Observances During the Han Dynasty. 1975.
5. Wolfram Eberhard. A Dictionary of Chinese Symbols. 1986.
6. UNESCO. Intangible Cultural Heritage Lists (China). 2008–2023.
7. Encyclopaedia Britannica. "Chinese New Year" maqolasi.
8. N. Jo'rayev. Jahon madaniyati tarixi. Toshkent, 2008.
9. A.Xo'jayev. Sharq mamlakatlari tarixi. Toshkent, 2012.
10. R. Abdullayev. Madaniyatshunoslik asoslari. Toshkent, 2016.